



FARG'ONA VODIYSIDA ILK DINIY TASAVVURLAR VA TABIAT UNSURLARINI MUQADDASLASHTIRISH

Jo'raboyev Sherzod Ibrohimjon o'g'li

NamDU Arxeologiya yo'nalishi

II bosqich magistranti

azizbekadashaliye1995@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona vodiysi o'zbeklari an'anaviy turmush tarzidagi qadimiy diniy e'tiqodlar izlarini tarixiy-etnografik materiallar asosida tahlil qilindi hamda magik va totemistik tasavvurlar bilan bog'liq qarashlar va ularning xarakterli xususiyatlari, qadimiy diniy tasavvurlarlardan biri bo'lgan shomonlik e'tiqodining hozirgi kundagi ko'rinishlari Farg'ona vodiysi o'zbeklari misolida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: "Avesto", Farg'ona vodiysi o'zbeklari, ekologik-diniy tasavvurlar, ilk diniy e'tiqodlar, tabiat kulti, animistik tasavvurlar, etnos, an'analar, marosimlar, sivilizatsiya.

Insoniyatning ilk diniy e'tiqodlari ham bevosita tabiat kulti bilan bog'liq bo'lib, ibtidoiy odamlar tabiat qonunlari oldidagi ojizlik oqibatida mifologik tasavvur shakllangan. Unga ko'ra inson tabiiy muhit bilan birlashadi ya'ni, tabiat va inson o'z jamoasidan ajralmagan holda hayot kechiradi. Ilk diniy tasavvurlarga ko'ra olam bu dunyo, u dunyo va g'ayri tabiiy dunyoga bo'linadi. Shu bois tabiat kultining asosi g'ayritabiiy kuchlarga ishonch ruhi bilan yo'g'rilgan. Ibtidoiy davrda totem – ajdodning muayyan jonivor, o'simlik va boshqa narsa ko'rinishida namoyon bo'lishi mifologik mohiyat kasb etgan va odatiy hol deb hisoblangan. Ana shu tushuncha eng qadimgi miflarda asotiriy personajlarning o'zlari mansub bo'lgan totem qiyofasiga kirishi motivini keltirib chiqargan. Mifologiyada bu motiv ma'lum bir hodisa yoki hayotiy voqelik sabablarini izohlash, tushuntirish



vazifasini bajargan. Ta'kidlash joizki, tabiat kultini ilk diniy tasavvurlarning deyarli barchasida uchratishimiz mumkin. Masalan, totemizm qadimgi turkiy xalqlar hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Totemizm da ba'zi o'simlik (daraxt) va hayvonlar odamning qo'riqlovchisi va tangrilari hisoblangan. Muayyan qavm a'zolari aniq bir hayvon yoki o'simlik zotidan tarqalgan degan tasavvurda bo'lganlar. Shu boisdan ham totem ular uchun ilohiy (muqaddas) hisoblangan.

Biz o'zbek xalqining an'anaviy turmush tarzi bilan bog'liq qarashlar va marosimlarni kuzatar ekanmiz, yer, don va nonga bo'lgan o'ziga xos hurmat-extiromni turli-tuman udumlar va marosimlarda hozirgacha saqlanib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasidagi xalqona qarashga ko'ra bug'doy, olma, qovun, anjir va rayhon dastlab jannatda o'sgan. Shu bois ushbu o'simliklar va mevalar doimo e'zozlangan. Ayniqsa, xalq orasida yerga bug'doy sepish eng xayrli amallardan biri sanalgan va bug'doy ekilgan maydonlarni oyoq osti qilish gunoh hisoblangan. Qolaversa, bug'doydan tayyorlanadigan taomlar ham alohida qadrlangan. Jumladan, bahorda, ilikuzildi paytida, ayollar tomonidan namlangan bug'doyni ko'klatib sumalak tayyorlash va qolaversa, bir marta sumalak tayyorlangan uyda yetti yil mobaynida har yili bir marta sumalak pishirish udumlari hozirgacha davom etib kelmoqda. Shu o'rinda xalqimizning nonga bo'lgan hurmat-e'tiborini aloxida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Asosiy xo'jalik mashg'ulotlaridan biri dehqonchilik bo'lgan o'zbek xalqida non azaldan asosiy va tansiq iste'mol mahsulotlaridan bo'lishi bilan birga non bilan bog'liq qator marosimlar va urf-odatlar shakllangan. Jumladan, non hech qachon oyoq ostiga tashlanmagan. Nonni bosish og'ir gunoh hisoblangan. Bundan tashqari kelinni kuyovnikiga kuzatishda boshiga non qo'yish odati bo'lgan. Farg'ona vodiysi o'zbeklari qadimiy odatga ko'ra g'alla somonini hech qachon o'choq va tandirga yoqishmagan. Chunki donni-nonni yoqish og'ir gunoh deyiladi. Axborotchilarimizning ta'kidlashlaricha, non bor joyga turli ins-jinslar va yovuz kuchlar yaqinlashmas ekan. Shu bois yomon ko'zdan, yovuz kuchlardan asrovchi vosita sifatida, yangi tug'ilgan chaqaloqni yoki xatna qilingan bolaning yostig'i





ostiga boshqa qator magik xususiyatga ega buyumlar bilan birga non qo'yilgan. Xorazmda non bo'laklarini tumor qilib taqilgan va non uchun hamir tayyorlab qo'yilgan yerga (masalan, tandir oldiga) jin, parilar yaqinlashmaydi deyiladi.

“Avesto”da yozilishicha, “kimda-kim bug'doy eksa, u Ashaxni (Haqiqat) ekadi. U Mazda dinini yana va yana ko'kartiradi. U Mazda dinini yuzlab hamdusano, nazru-niyoz va o'n minglab qurbonliklar quvvatlantirgandek qudratli qiladi. Qachonki egatlarda urug' yetilsa, devlar o'rinlaridan ko'chadilar. Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa devlar dahshatlardan titray boshlaydilar. Qachonki bug'doy un bo'lsa, devlar nola chekadilar. Qachonki bug'doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo'ladilar. Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa u xonadonga devlar yaqinlasha olmaydilar. Qay bir xonadonda bug'doy ombori bo'lsa go'yo, qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi”. Ko'rinadiki, “Avesto” paydo bo'lgan davrda g'alla ekish, don yetishtirish, umuman, dehqonchilik madaniyati yetarli darajada rivojlangan ekan.

Qadimgi turkiy xalqlar daraxtlar ota daraxt, ona daraxt bo'ladi, deb hisoblaganlar. Inson hayoti mohiyatiga ko'ra o'z egizak daraxti hayoti bilan bog'liq bo'lgan. Boz ustiga, qadimda turkiylar orasida har bir urug'ning o'ziga xos shajara daraxti ham bo'lgan. Bu daraxt shu urug' a'zolari uchun muqaddas sanalgan. R. G. Axmetyanov fikricha, qirg'izcha “tangrim bir yog'sa, teragim ikki yog'adi”, tatarcha “tiraging bo'lsa, tiraging bo'lar” maqollarida terak so'zi himoyachi urug', homiy ma'nosida saqlanib qolgan. Shubhasiz, bularning bari turkiylarning qadimiy totemistik qarashlari bilan bog'liq bo'lib, ushbu e'tiqodlar tufayli qabila a'zolari o'z totemlariga qarab urug'-aymoqlarga bo'lingan. Shunga muvofiq qabila va urug' nomlari totem sifatida qabul qilingan va jonivor nomi bilan nomlangan. Qadimgi davrdan boshlab insoniyatning tabiat, o'simlik va hayvonot dunyosiga bo'lgan ilohiy munosabatlari asosida e'tiqod va tajribalarni o'zida jamlagan an'anaviy ekologik madaniyat shakllana boshlagan. Bu madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tabiatni asrash bilan bog'liq diniy an'analar shakllangan. Odamlar yashab kelgan geografik hududning iqlimi, tabiati, yil





fasllari hamda mavsumiy bayramlar asosida ekologik-diniy tasavvurlari rivojlana boshlagan.

Farg'ona vodiysi o'zbeklarining kabi tabiat unsurlariga nisbatan ehtiyotkorona munosabati, ularni e'zozlash bilan bog'liq diniy-ekologik qarashlarning tarixiy ildizi qadimiy davrga borib taqaladi. Shubhasiz, bu borada O'zbekistonning o'ziga xos tarixiy-etnografik mintaqalaridan biri – Farg'ona vodiysida ham qadimdan tabiat va tabiat unsurlarini asrash bilan bog'liq ekologik qadriyatlar shakllangan.

Farg'ona vodiysi o'zbeklari an'anaviy dehqonchilik mashg'uloti bilan bog'liq marosimlar va urf-odatlarda tabiat kulti izlari, garchi, qoldiqiy ko'rinish sifatida bo'lsa-da, yetib kelganini va aksariyat hollarda islomiy qarashlar bilan o'zaro qorishgan holda amalga oshirilishini kuzatdik. Islom dinining dehqonchilik xo'jaligi bilan bog'liq arxaik kultura nisbatan bag'rikengligi qadimiy diniy-mifologik tasavvurlar asosidagi dehqonchilik bilan bog'liq urf-odatlaridan ko'zlangan asosiy maqsad sof diniy ta'limot bilan emas, balki hayot davomiyligini ta'minlashga qaratilgan me'yorlar, ya'ni, mo'l-ko'l hosil yetishtirish va uni isrof yoki nobud qilmasdan yig'ib olishga qaratilganligiga Farg'ona vodiysida o'tkazilgan dala tadqiqotlari jarayonida ham amin bo'ldik. Nemis folklorshunosi V. Mannhardt ilk bora dehqonchilik bilan bog'liq turli afsonalar va obrazlarda o'simliklar olamining jonlanishi sirlari namoyon bo'lishi muammosini ilgari surgan. V. Mannhardtning ta'kidlashicha, marosimlar va kultlar asosida inson tabiatdagi o'zga mavjudotlar singari o'simliklarda yashaydi, degan nuqtai nazar mavjud bo'lgan. Olimning fikricha, ruhning o'simlikka evrilishi to'g'risidagi quyi mifologiya yuqori ilohlar to'g'risidagi mifologiyaga asos bo'lgan. Aynan quyi mifologiya o'ziga xos yashovchan bo'lganligi tufayli uning izlari dehqonchilik marosimlarida yaxshi saqlanib qolgan[1, –B. 24]. Mashhur ingliz tadqiqotchisi J. Frezer Mannhardt ma'lumotlariga tayangan holda qadimiy agrar dunyoqarashga oid manzarani qayta tiklagan va uning rivojlanish bosqichlarini ko'rsatgan hamda antik kultlar madaniyatning turli rivojlanish bosqichlarida oraliq bo'g'in sifatida





muhim ahamiyatga egaligini ta’kidlagan. Qolaversa, zamonaviy dinshunoslik faniasoschilaridan biri bo’lgan J.Frezer tarixiy taqqoslash usuli asosida ilk mifologik qarashlar va rituallar bilan Yevropa xalqlari dehqonchilik marosimlarining o’zaro bog’liqligini ko’rsatib berishga uringan[2, – B. 128–129.].

Darhaqiqat, dehqonchilik bilan bog’liq ravishda o’tkazilgan urf-odatlar, marosimlar turli agrar kulturning magik (sehrgarlik) kuchiga bo’lgan inonch asosida shakllangan. Shu boisdan ham dehqonchilik bilan bog’liq udum va marosimlarning ko’plari islomgacha bo’lgan tabiat hodisalarini ilohiylashtirish, osmon va yer ilohlariga sig’inishga asoslangan. Sharqning dehqonchilik vohalari aholisi qadimiy turmush tarzida muhim o’rinni egallagan o’lib qayta tiriluvchi ilohlar kulti taniqli dinshunos va etnograf V. N. Basilov fikricha, aynan islom ta’sirida unutilgan. Biroq, etnolog olim A. Ashirovning ta’kidlashicha, qadimgi agrar kulturning islom kirib kelishi bilan butkul yo’q bo’li ketmagan, balki islomiy qarashlar bilan sinkretik (qorishgan) holda saqlanib qolgan va hatto davrlar osha XX asrgacha yetib kelgan.[3, – B. 141.].

Dehqonlarning tabiat hodisalarini oldida ojizligi, sermashaqqat mehnat evaziga yetishtirilgan hosilning tabiiy ofatlar tufayli nobud bo’lishi va tabiatning ularga noma’lum ko’rinmas kuchlaridan qo’rquv muammolardan qutilish choralarini izlash hamda dehqonchilik bilan bog’liq qator magik marosimlar bajarilishiga asos bo’lgan. Mazkur marosimlar va urf-odatlar ildizi juda uzoq davrga borib taqalib, qadimgi animistic tasavvurlar bilan bog’liq bo’lgan. Dehqonchilik bilan bog’liq ravishda o’tkazilgan urf-odatlar, marosimlar turli agrar kulturning magik (sehrgarlik) kuchiga bo’lgan inonch asosida shakllangan. Demak, Farg’ona vodiysida ilk diniy tasavvurlar va tabiat kulti, tabiat unsurlarini muqaddaslashtirish bilan bog’liq eng qadimgi davrda paydo bo’lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mannhardt W. Wald-uhd Feldkulte. – Berlin, 1862 – P. 24.





2. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашри, 2007 – Б. 128–129.

3. Аширов А.А. Ўзбек халқи анъанавий турмуш тарзида қадимий диний эътиқодлар (Фарғона водийси материаллари асосида.) Тарих фанлари док. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. –Т., 2008 – Б. 141.

